



ERGASHEVANING “QAYTAR DUNYO” HIKOYASI VA ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA OTA OBRAZI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani va Jamila Ergashevaning “Qaytar dunyo” hikoyasida ota obrazining badiiy talqini qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki asardagi ota timsolining xarakter xususiyatlari, oilaviy munosabatlar tizimidagi o‘rni hamda ma‘naviy-axloqiy qarashlarni ifodalashdagi vazifalari o‘rganilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, “Ota” romanida Po‘lat ota obrazi milliy qadriyatlar va oilaviy mas‘uliyat timsoli sifatida gavydalandirilgan bo‘lsa, “Qaytar dunyo” hikoyasida Ultonboy obrazi otalik mas‘uliyatini anglash va kechikkan pushaymon fojeasini aks ettiruvchi murakkab xarakter sifatida tasvirlangan. Har ikki asarda ota obrazi insoniy qadriyatlar, avlodlar davomiyligi va oilaviy munosabatlarning badiiy ifodasiga xizmat qilishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *ota obrazi, Po‘lat ota, Ultonboy, otalik mas‘uliyati, oilaviy munosabatlar, xarakter, badiiy obraz, qiyosiy tahlil, milliy qadriyatlar, ma‘naviyat, o‘zbek nasri, roman, hikoya.*

THE IMAGE OF THE FATHER IN ULUGBEK HAMDAM’S ROMAN “FATHER”AND JAMILA ERGASHEVA’S STORY “RETURNING WORLD”



Abstract: *This article provides a comparative analysis of the artistic interpretation of the father's image in Ulugbek Hamdam's novel "The Father" and Jamila Ergasheva's short story "The Return of the World." The study examines the character traits of the father figure in both works, its role in the system of family relations, and its functions in expressing spiritual and moral views. According to the results of the analysis, in the novel "Father", the image of Polat-ota is embodied as a symbol of national values and family responsibility, while in the story "The Return of the World," the image of Ultonboy is depicted as a complex character reflecting the tragedy of paternal responsibility and delayed regret. In both works, the image of the father serves as an artistic expression of human values, the continuity of generations, and family relations.*

Keywords: *father's image, Pulat ota, Ultonboy, paternal responsibility, family relations, character, artistic image, comparative analysis, national values, spirituality, Uzbek prose, novel, story.*

ОБРАЗ ОТЦА В РОМАНЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА "ОТЕЦ" И В РАССКАЗЕ ЖАМИЛЫ ЭРГАШЕВОЙ "ВОЗВРАЩАЮЩИЙСЯ МИР"

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ художественной интерпретации образа отца в романе Улугбека Хамдама "Отец" и рассказе Джамилы Эргашевой "Возвращающийся мир." В исследовании изучены особенности характера образа отца в обоих произведениях, его место в системе семейных отношений, а также его функции в выражении духовно-нравственных взглядов. Согласно результатам анализа, если в романе "Ота" образ Пулат воплощен как символ национальных ценностей и семейной ответственности, то в рассказе "Кайтар дунё" образ Ултонбоя изображен как сложный персонаж, отражающий трагедию отцовской ответственности и запоздалого раскаяния. В обоих произведениях образ отца служит художественному*



выражению человеческих ценностей, преемственности поколений и семейных отношений.

Ключевые слова: *образ отца, Пулат, Ултонбой, отцовская ответственность, семейные отношения, характер, художественный образ, сравнительный анализ, национальные ценности, духовность, узбекская проза, роман, рассказ.*

Ota obrazi jahon va o'zbek adabiyotida azaldan muhim badiiy-estetik kategoriyalardan biri sifatida talqin etib kelinadi. Ushbu timsol orqali yozuvchilar insonning oiladagi o'rni, farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, ma'naviy qadriyatlari hamda jamiyat bilan munosabatlarini yoritishga intiladilar. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek nasrida ota obrazining turli qirralarini ochib berishga qaratilgan asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani va Jamila Ergashevaning "Qaytar dunyo" hikoyasi ota timsolining badiiy talqiniga bag'ishlangan asarlar sirasiga kiradi. Har ikki asarda ota obrazi oilaviy munosabatlar, insoniy burch va ma'naviy mas'uliyat nuqtayi nazaridan yoritilgan bo'lsa-da, qahramonlarning hayotiy pozitsiyasi va taqdiri jihatidan muayyan farqlar kuzatiladi. "Ota" romanida Po'lat ota milliy qadriyatlar, oilaparvarlik va fidoyilik timsoli sifatida gavdalantirilgan bo'lsa, "Qaytar dunyo" hikoyasidagi Ultonboy obrazi otalik mas'uliyatini o'z vaqtida anglay olmagan insonning fojiaiy qismatini aks ettiradi. Mazkur asarlar qiyosiy tahlili ota obrazining badiiy-falsafiy mohiyatini, uning xarakter yaratishdagi o'rnini hamda muallif g'oyasini ifodalashdagi ahamiyatini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, asarlarda ota va farzand munosabatlari, oilaviy qadriyatlar hamda insonning o'z qilmishlari uchun javobgarligi masalalari badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida Po'lat ota obrazi asarning g'oyaviy markazi hisoblanadi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali o'zbek xalqining ota haqidagi tasavvurlari, oilaviy qadriyatlari va ma'naviy-axloqiy qarashlarini badiiy



mujassamlashtirgan. Romanda Po‘lat ota nafaqat bir oilaning boshlig‘i, balki milliy tafakkur va ma‘naviyatning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Po‘lat ota – oilaning ma‘naviy ustuni

Po‘lat ota oilada tartib-intizomni saqlovchi, farzandini halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalovchi inson sifatida tasvirlanadi. Uning butun hayoti oila va qizining baxtiga bag‘ishlangan. Qahramon uchun ota bo‘lish oddiy biologik hodisa emas, balki yuksak mas‘uliyatdir. Shu sababli u har bir ishda farzandiga o‘rnak bo‘lishga intiladi.

Po‘lat xarakterida sabr-toqat, matonat, mas‘uliyat, oilaparvarlik, vatanparvarlik, ma‘naviy poklik, fazilatlar ustunlik qiladi. Ayniqsa uni yil bo‘yi vijdon azobi qiynaydi, o‘zi o‘t o‘chiruvchilik lavozimida ishlab, ammo qizi olovda qolib yuzi kuygani uchun o‘zini kechirolmaydi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Po‘lat obrazida nomus masalasi ham birinchi o‘rinda, qizining aybini kechirolmasdan uni o‘ldirish darajasiga ham boradi. Qamoqxonada esa hamma Po‘latni qilgan ishini oqlaydi, uni o‘zbek otasidagi or-nomus ramzi sifatida ko‘rishadi. U hayot sinovlari oldida bukilmaydi. Qiyinchiliklarga bardosh berishi va oilani birlashtirishga intilishi uning xarakterini yanada ulug‘vor ko‘rsatadi. Roman davomida u nabirasiga qaraydi, qamoqxonadan chiqib ham o‘zligini yo‘qotmaydi, shuning uchun ham Po‘lat ota faqat individual xarakter emas, balki ramziy obraz hamdir. Uning nomidagi “Po‘lat” so‘zi mustahkamlik, bardoshlilik va iroda ramzi sifatida talqin qilinadi. Qahramonning ruhiy qudrati va hayotiy prinsiplariga sodiqligi uning ismiga hamohang ravishda ochib beriladi.

Jamila Ergashevaning “Qaytar dunyo” hikoyasida bosh qahramon Ultonboy obrazi juda murakkab va fojiaiviy xarakter sifatida tasvirlangan. Muallif uning taqdiri orqali insonning xatolari, loqaydligi va kechikkan pushaymonining achchiq oqibatlarini ko‘rsatadi. Ultonboy bir qarashda hayot tomonidan ezilgan, yolg‘iz va baxtsiz inson bo‘lib ko‘rinadi. Hikoya boshida uning bozorda maqsadsiz kezib yurishi, ochligi, eski kiyimlari va huvillagan uyga qaytishni istamasligi uning



ayanchli ahvolini ochib beradi. Biroq asar davomida bu holatlarning sababi uning o'z hayotidagi noto'g'ri qarorlari ekanligi ma'lum bo'ladi. Ultonboy yoshligida boylik va manfaatni insoniylikdan ustun qo'yadi. Bobosi va akasining bosimi ostida Nodiraga uylangan bo'lsa-da, uni chin dildan qadrlamaydi. Mashina va mol-dunyoga qiziqib, oilaviy mas'uliyatni his qilmaydi. Ayniqsa, farzandlari kasal bo'lganida yoki Nodira qiynalgan paytlarda uning befarqligi xarakterining eng salbiy tomonlarini ochib beradi. Ota sifatidagi fojiasi Hikoyaning markaziy nuqtalaridan biri Ultonboyning otalik masalasidir. U o'g'li Hasan bilan tirik bo'la turib, otalik burchini bajarmaydi. Hasan bilan uchrashuv sahnasi asarning eng dramatik epizodlaridan biridir. Hasanning: "Siz nafratga ham arzimaysiz" degan gapi Ultonboy hayotining eng og'ir hukmiga aylanadi. Chunki nafrat ham insonning hayotida ma'lum o'rin egallashini bildiradi, Hasan esa otasini hatto nafratlanishga ham arzimaydigan shaxs deb hisoblaydi. Asarning oxiriga kelib Ultonboy o'z xatolarini anglay boshlaydi. U Nodiraga qilgan zulmlarini, farzandiga mehr bermaganini, hayotini bekorga sarflaganini tushunadi. Ammo bu anglash juda kech keladi. O'g'li katta bo'lib ketgan, Nodira boshqa hayot qurib ulgurgan, o'zi esa qarigan, kambag'al va yolg'iz qolgan. Shu jihatdan Ultonboy obrazi kechikkan tavba timsoli hisoblanadi. U yomon odam bo'lishni istamagan, ammo loqaydligi, irodasizligi va mas'uliyatsizligi tufayli o'z baxtini ham, oilasini ham yo'qotgan. Jamila Ergasheva Ultonboy obrazi orqali ota bo'lish biologik hodisa emas, balki mas'uliyatdir, inson qilgan xatolarining oqibatidan qochib qutula olmaydi, mehr va e'tibor o'z vaqtida berilmasa, keyingi pushaymon foyda bermaydi, moddiy manfaat ortidan quvish insonni ma'nav iyqashshoqlikka olib keladig'oyalarni ilgari suradi. Ultonboy hikoyadagi eng fojiaviy obrazlardan biridir. U na mutlaqo yovuz, na mutlaqo ijobiy qahramon. Uning fojiasi shundaki, u hayot davomida to'g'ri qaror qabul qilishga jur'at topa olmaydi. Natijada sevgan insonlaridan, farzandidan va insoniy qadr-qimmatidan ayriladi. Muallif ushbu obraz orqali otalik mas'uliyati, vijdon azobi va kechikkan pushaymon mavzularini chuqur badiiy talqin etgan.



Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani va Jamila Ergashevaning “Qaytar dunyo” hikoyasida ota obrazi turli badiiy usullar orqali yoritilgan bo‘lsa-da, har ikkala asarda ham otalik mas’uliyati, oilaviy qadriyatlar va insoniy munosabatlar masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Po‘lat ota va Ultonboy obrazlari bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar sifatida yaratilgan. Po‘lat ota mas’uliyat, mehr va fidoyilik timsoli bo‘lsa, Ultonboy loqaydlik va hayotiy xatolarning achchiq oqibatlarini ifodalaydi. Shu orqali har ikki muallif ota shaxsining oila va jamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyatini badiiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur asarlarda ota obrazi nafaqat alohida qahramon xarakterini, balki milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar va insoniy mas’uliyat konsepsiyasini yorituvchi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hamdam U. Ota. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
2. Ergasheva J. Qaytar dunyo. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
6. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010.
7. Karimov N. Zamonaviy o‘zbek nasri. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Abduqodirov A. Adabiyotshunoslikka oid maqolalar to‘plami. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
9. Rustamov H. Badiiy obraz va uning tahlili. – Toshkent: Universitet, 2016.